

QILMISHNING JINOIYLIGINI ISTISNO QILUVCHI HOLATLAR

Maxmudov Jo'shqinbek Xamro o'g'li

Qoraqalpog'iston Qishloq xo'jaligi va Agrotexnologiyalar Instituti

Yuristprudensiya yo'nalishi 2-kurs talabasi

maxmudovjoshqinbek1@gmail.com

+998947952233

Annotatsiya: Ushbu maqolada qilmishning jinoyat sifatida baholanishini istisno qiladigan holatlarning nazariy-huquqiy mazmuni, ularning jinoyat huquqidagi o'rni hamda amaliy ahamiyati tahlil etiladi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida mustahkamlab qo'yilgan zaruriy mudofaa, oxirgi zarurat, jinoiy harakatni ijro etish, asossiz xavfni qabul qilmaslik, kasb yoki xizmat vazifasini bajarish kabi institutlarning mohiyati yoritiladi. Shuningdek, ushbu holatlarning qo'llanish mezonlari, huquqni qo'llovchi organlar amaliyotida uchraydigan muammolar hamda ularni takomillashtirish bo'yicha ilmiy takliflar keltiriladi. Tadqiqot huquqiy normalarning oqilona qo'llanishini ta'minlash, inson huquqlarini samarali himoya qilish va jinoyat-huquqiy siyosatni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: jinoyat, nazariy-huquqiy mazmuni, jinoyat huquqi, norma, inson huquqlari, mudofaa, himoyalanish.

Abstract: This article analyzes the theoretical and legal essence of circumstances that exclude the classification of an act as a crime, their place in criminal law, and their practical significance. It highlights the essence of legal institutions enshrined in the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan, such as necessary defense, state of necessity, execution of a criminal act under certain conditions, rejection of unjustified risk, and performance of professional or official duties. Additionally, the article discusses the criteria for applying these circumstances, the problems encountered in law enforcement practice, and provides scientific recommendations for their improvement. The research aims to ensure the reasonable application of legal norms, effectively protect human rights, and contribute to the development of criminal law policy.

Keywords: crime, theoretical and legal content, criminal law, norm, human rights, defense, protection.

Аннотация: В данной статье анализируется теоретико-правовое содержание обстоятельств, исключающих квалификацию деяния как преступления, их место в уголовном праве и практическое значение. Освещается сущность институтов, закрепленных в Уголовном кодексе Республики Узбекистан, таких как необходимая оборона, крайняя необходимость, исполнение уголовного деяния при определённых условиях,

отказ от необоснованного риска и выполнение профессиональных или служебных обязанностей. Также рассматриваются критерии применения этих обстоятельств, проблемы, встречающиеся на практике органов правоприменения, а также научные предложения по их совершенствованию. Исследование направлено на обеспечение разумного применения правовых норм, эффективную защиту прав человека и развитие уголовно-правовой политики.

Ключевые слова: преступление, теоретико-правовое содержание, уголовное право, норма, права человека, защита, охрана.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, qilmishning istisno qiladigan holatlarini noto'g'ri qo'llash yoki ularni yetarlicha tahlil qilmaslik inson huquqlarining buzilishiga, aybsiz shaxsning jinoiy javobgarlikka tortilishiga yoki aksincha, jinoyat sodir etgan shaxsning javobgarlikdan asossiz ravishda ozod etilishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ushbu institutlarning mazmuni, qo'llanish shartlari va amaliy mexanizmlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish jinoyat huquqi nazariyasi va amaliyoti uchun muhim ahamiyatga ega.

-Qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar tushunchasi

O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligi u yoki bu qilmishning jinoiyligi masalasini hal etganda unda jinoyat tarkibining barcha belgilari, albatta, haqiqatda mavjudligi talabidan kelib chiqadi. Boshqacha aytganda, qilmishlar tashqi jihatdan (ya'ni, rasman) sodir etilishi uchun javobgarlik JK da ko'zda tutilgan harakatlar yoki harakatsizlikka o'xshagan bo'lsa-da, haqiqatda jinoyat tarkibining barcha elementlariga ega bo'lmasa, jinoyat deb tan olinishi mumkin emas va kerak emas. Bunday holatlarda jinoiy javobgarlik istisno etiladi.

- Qilmishning kam ahamiyatli ekanligi

Vatanimizdagi jinoyat to'g'risidagi qonun hujjatlari uchun an'anaviy bo'lgan shaxsning kam ahamiyatli qilmish sodir etgan holda uni jinoiy javobgarlikka tortilishini istisno qiladigan qoidalar JK 35-moddasida aks ettirilgan, uning qoidalariga ko'ra, «garchi ushbu Kodeksda jinoyat sifatida nazarda tutilgan qilmishning alomatlari mavjud bo'lsa-da, o'zining kam ahamiyatligi tufayli ijtimoiy xavfli bo'lmagan harakat yoki harakatsizlik jinoyat deb topilmaydi».

- Zaruriy mudofaa

Zaruriy mudofaa – bu ijtimoiy xavfli bo'lgan tajovuzdan qonuniy himoya qilish bo'lib, tajovuzchiga noilojlikdan zarar yetkazish orqali amalga oshiriladi hamda tajovuzning xarakteriga va ijtimoiy xavfliligi darajasiga mos keladi.

Zaruriy mudofaaning qonuniy bo'lishining tajovuzga oid birinchi sharti sifatida tajovuzning ijtimoiy xavfli va huquqqa qarshi bo'lishi tan olinadi.

Himoyalaniishning muvofiqligini aniqlashda hisobga olinishi lozim bo'lgan boshqa holatlar muayyan qilmishning tajovuzchilar soni va mudofaalanuvchilarning

soni, ularning yoshi, jismoniy rivojlanishi, qurolining mavjudligi, tajovuzning vaqti va joyi kabi elementlarini qamrab oladi

-Oxirgi zarurat

Oxirgi zarurat zaruriy mudofaa bilan bir qatorda qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan eng ko'p tarqalgan holatlarga kiradi. Lekin zaruriy mudofaadan farqli ravishda oxirgi zarurat huquqqa qarshi tajovuzning oldini olish bo'lmaydi, balki huquq bilan muhofaza qilinadigan manfaatlar to'qnashuvida ziddiyatlarni hal etishning huquqiy mexanizmi bo'ladi. Oxirgi zarurat holatida bo'lgan shaxs tanlashi lozim: yoki tahdid solayotgan xavfga yo'l qo'yish yoki boshqa qonuniy manfaatlarga zarar yetkazish bilan ularni buzish orqali bu xavfni bartaraf etish. Oxirgi holda shaxsning qilmishi rasman jinoyatdan farq qilmasligi mumkin, lekin uning ma'lum shartlarga muvofiq bo'lgan holatida u ijtimoiy foydali va qonuniy deb tan olinadi.

-Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlash vaqtida zarar yetkazish

Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni hokimiyat idoralariga topshirish maqsadida ushlash paytida zarar yetkazish, bunda ushlash vositalari va usullariga, qilmishning hamda uni sodir etgan shaxsning xavflilik darajasiga, shuningdek, ushlash sharoitiga mos kelishiga amal qilingan bo'lsa, jinoyat bo'lmaydi.

-Buyruq yoki boshqa vazifani ijro etish

Qonuniy buyruq yoki boshqa farmoyish yoxud mansab vazifalarini ijro etish uchun harakat qilayotgan shaxs tomonidan jinoyat qonuni tomonidan qo'riqlanayotgan manfaatlarga ziyon yetkazilgan taqdirda, buyruq yoki boshqa farmoyishning bajarilishi qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holat deb topiladi.

Umuman olganda Buyruq deganda, vakolatli shaxsning ijro etish majburiyati yuklangan shaxsga bergan ma'lum bir harakat (harakatsizlik) ni bajarish haqidagi qonun va qonunosti aktlarga asoslangan talabi tushuniladi.

Buyruq, farmoyish yoki xizmat majburiyatlarining qonuniyligini aks ettiruvchi birinchi belgilardan biri – bu rasman muvofiq kelishidir.

-Kasb yoki xo'jalik faoliyatiga bog'liq asosli tavakkalchilik

JK 41-moddasida ijtimoiy foydali maqsadga erishish uchun kasb yoki xo'jalik faoliyatiga bog'liq asosli tavakkalchilik qilib, huquqlar va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarga zarar yetkazish jinoyat deb topilmasligining shartlari ixchamlashgan shaklda ko'rsatilib o'tilgan. Mazkur shartlar, birinchidan, qilmishdagi tavakkalchilikni ijtimoiy foydasi tarafidan, ikkinchidan, uni amalga oshirishdagi xatti-harakatlarni ma'lum darajadagi xavfsizligiga rioya qilinganligi tarafidan tavsiflanadi. Aynan shunda, qilmish mazkur barcha talablarga rioya etilganda, u kasb yoki xo'jalik faoliyatiga bog'liq asosli tavakkalchilik sifatida tan olinib, mos ravishda, jinoyatni istisno qilishi mumkin.

-Jismoniy yoki ruhiy majburlash yoxud qo'rqitish

Jismoniy yoki ruhiy majburlash – qilmishning jinoiyligini inkor etuvchi yana bir holat hisoblanadi. Jismoniy yoki ruhiy majburlash – bu shaxsga nisbatan g‘ayriqonuniy kuch (jismoniy yoki ruhiy) ishlatishning qo‘llanilishi bo‘lib, mazkur shaxs tomonidan, uning xohish-istagiga qarshi, jamiyat uchun xavfli qilmishning sodir etilishiga erishish maqsadida amalga oshiriladi. Bunday vaziyatda harakatlar shaxsning xohish-istagisiz sodir etilishi natijasida uning javobgarligi inkor etiladi, shunday ekan shaxs aybsiz hisoblanadi. Haqiqatda, majburlovchi bunday vaziyatda jinoyatning “tirik quroli” sifatida chiqadi, majburlovchi esa jinoyat subyekti hisoblanadi va javobgar bo‘ladi.

XULOSA

Maqolada qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar, ularning nazariy-huquqiy mohiyati va amaliy qo‘llanilishi tahlil qilindi. Zaruriy mudofaa, oxirgi zarurat, qonuniy buyruqni bajarish, kasb yoki xizmat vazifalari va jismoniy yoki ruhiy majburlash kabi holatlar jinoyat tarkibidan istisno qiluvchi asosiy institutlar sifatida ko‘rsatildi. Ushbu holatlarning to‘g‘ri qo‘llanilishi shaxsning aybsiz jazoga tortilishining oldini oladi va inson huquqlarini samarali himoya qiladi, shuningdek, jinoyat-huquqiy tizimning barqarorligini ta‘minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi
2. Jinoyat huquqi (umumiy qism)” — Ochilov X. R., Turg‘unboyev E. O., O‘razaliyev M. O.
3. 3. ”Jinoyat huquqi” — Adliya vazirligi nashri 2020 y.
4. “Kriminologiya va jinoyat-ijroiya sudlov” jurnali 2024 y.
5. 5. Choriyev Anvar Qo‘ziyevichning “Qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar shaxs huquq va erkinliklarini suddan tashqari himoya qilish shakllari sifatida” maqolasi 2023 y.
6. Qilichev Nosirbek Jasur o‘g‘li — “Qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holat sifatida zaruriy mudofaa va ushbu institutni takomillashtirish masalalari” (maqola). sciencebox.uz
7. Samiyev Shaxruz Yunusovich — “Qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holat sifatida kam ahamiyatli qilmishlar” (ilmiy maqola / tadqiqot). Best Publication
8. Dauletbaeva Aynur Baxramovna — “Qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar sifatida kam ahamiyatli qilmishlar” (ilmiy maqola) phoenixpublication.net



9. Попов А.Н. (tahrirlangan) — Обстоятельства, исключающие преступность деяния (“Обстоятельства, исключающие уголовную ответственность”) — darslik / monografiya.